

Tarbiya

3



Usmanova O. V., Risyukova Y. V.

Tarbiya 3-sinf [Matn] : darslik / O. V. Usmanova, Y. V. Risyukova -
Toshkent : Novda Edutainment, 2023. - 104 b.

Taqrizchilar:

Sh. T. Rizayev – Kinematografiya agentligi bosh direktori o'rinbosari, professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi;

B. N. Karimov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
professori, filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi;

Sh. O. Ergasheva – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bosh
mutaxassisi, filologiya fanlari nomzodi.

Shartli belgilar:



**Yangi ma'lumotni
o'rganing**



**Savollarga
javob bering**



**Vaziyatni
o'rganing**



Ijodiy topshiriq



Uy vazifasi



Bu – qiziq!



**Topshiriqni
bajaring**



**Og'zaki
topshiriq**



**Guruh bo'lib
ishlang**



Eslab qoling!



Xalq o'gitalari



**Tabiatni
asrang**

Aziz bolajon!

Qo'lingizda uchinchi sinf uchun mo'ljallangan "Tarbiya" darsligi. Umid qilamizki, bu darslik siz uchun foydali, u bilan ishlash esa maroqli bo'ladi.

Kitobda siz uchun turli mavzudagi ma'lumotlarni, topshiriqlarni jamladik. Ular yordamida siz turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishni, o'z his-tuyg'ularingizni, birovlarining quvonch va kechinmalarini his qilishni, tushunishni o'rganasiz. O'zbekistonda yashovchi millat va elatlarning urf-odatlarini, madaniyati haqida ham qiziqarli ma'lumotlarni bilib olasiz.

Bilimlar olamiga sayohatingiz foydali va qiziqarli bo'lsin!



I bo'lim. Men va atrofimdagi olam

1-dars

VATANIM HAQIDA NIMALARNI BILAMAN?

Madina, esingdami, yozda shaharni aylanib yurganimizda maydonda juda katta bayroq ko'rgan edik?



Ha, esimda. Bayroq ham xuddi gerb va madhiya kabi davlatimiz ramzi hisoblanadi. Sport musobaqalarida qaysi davlatning sportchisi g'olib bo'lsa, o'sha davlatning bayrog'i ko'tariladi, keyin madhiyasi yangraydi. Shahar yoki qishloqda birorta binoning ustida bayroq ko'rsang, demak, bu davlat muassasasi bo'ladi.

Davlat gerbi pulda ham bor-a?'



Ha, bor. Deyarli har bir davlatning o'z valyutasi, ya'ni pul birligi bor. Qog'oz pul yoki tangada mashhur insonlar, me'moriy obidalar, tarixiy binolar tasviri bo'ladi.

“Xudoyorxon saroyi”
me'moriy yodgorligi

Xaritada “Buyuk Ipak yo'li”
yo'nalishi aks ettirilgan

Pulning
qiymati



Seriyasi
va raqami

Adras naqshi



Amir ta'tilda ota-onasi bilan chet elga, qarindoshlarinikiga bordi. O'ynagani hovliga chiqqanida u yerlik bolalar Amirga "O'zbekiston haqida gapirib ber-chi", – deb qolishdi. Amir nima deyishini bilmay qoldi. "O'zbekistonning aytarli hech narsasi yo'qmi?" – dedi bolalardan biri. Amir alamidan yig'lab yuboray dedi.



1. Nima deb o'ylaysiz, Amir bu voqeadan qanday xulosa chiqardi?
2. Amirning o'rnida bo'lsangiz, O'zbekiston haqida nimalarni aytib bergan bo'lardingiz?

Vatanga muhabbat, o'z xalqining qadriyatini, madaniyatini hurmat qilish, yurtini qo'riqlash va himoya qilishga doim tayyor turish – vatanparvarlik deb ataladi.





Do'pka voqeasi



Do'pka – bu kepkaning sharqona naqshlar bilan bezatilgan ko'rinishi. U o'zining kim ekanligini, naqshlarining ma'nosini bilgisi kelardi. Unutilmas sayohatga yo'l olishni orzu qilardi. Do'pkaning yo'lida uchragan qahramonlar bilan suhbatidan biz boshqa turli xildagi do'ppilarda aks ettirilgan naqshlar va ularning kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni bilib olamiz.



– Men xunuk bo'lsam kerak... Men hech kimga qiziq emasman, hech kim oldimga kelmayпти. Meni hech kim kiyib ko'rmayпти. Menda qanday naqshlar tasvirlanganini ham bilmayman. Qaniydi, menda ham boshqa kepkalarga o'xshagan belgilar bo'lsa... Meniki chiroyli bo'lmasa kerak...

– O'zligingni, kimligingni bilib, faxrlanish uchun. Buning uchun tug'ilgan joying tarixini bilishing lozim: u yerda nimalar bor, u yer nimasi bilan tanilgan? Bu narsalarning hammasini bilish lozim. Shunda ko'p savollarga javobing bo'ladi.

– Sen o'z ildizingni ham bilishing kerak.

– Ildizimni? Nima uchun? – deb so'radi Transformer Do'ppi.





– Oddiy kepkalarga o'xshamoqchi bo'lganingni bilaman. Lekin esdan chiqarmagin: har birimiz noyobmiz. Noyob degani – bu boshqalarga o'xshamaydigan degani. Senda bor xislatlar boshqalarda bo'lmasligi mumkin, boshqalardagi xislatlar senda bo'lmasligi mumkin. Bu kimdir boshqadan yomonroq yoki kimdir birovdan ko'ra yaxshi degani emas. Har birimizning ajoyib xususiyatlarimiz bor, o'zimizga xos tabiatimiz va iste'dodimiz bor.



1. Do'pkaning ko'rinishi qanday ekan? Aytib bering.
2. Do'pka nega xafa bo'ldi?
3. Nima uchun har bir inson o'zining tarixini, qaysi yurtidan ekanini, bu yurt nimasi bilan mashhurligini bilishi kerak?

Bolalar uchun kitob yozish fikri bir voqeadan keyin paydo bo'ldi. Bir kuni dugonamga sovg'a qilish uchun milliy naqshlar chizilgan bosh kiyim sotib oldim. Unga qaradim-u... o'zimga o'xshatdim.

Zamonaviy bosh kiyimga o'zbek milliy naqshlari chizilgan edi. U xuddi menga o'xshardi. Keyinchalik, kitobning qahramonlari kim bo'lishini o'ylab yurganimda, ular bolalar emas, buyumlar bo'ladi, deb qaror qildim. Shunday qilib, O'zbekiston bo'ylab sayohatga otlangan Do'pka bilan marg'iloncha Transformer-do'ppi paydo bo'ldi. Ular aylanib yurib, Vatanimiz bilan yaqindan tanishib chiqishadi, keyin esa bu haqida boshqalarga aytib berishadi.



Saida Rashidova, kitob muallifi



O'zingiz tug'ilgan joy va uning tarixi haqida qisqa hikoya tayyorlang.

ЎZBEKISTON XALQI – VATANIMIZ FAXRI



– Akmal, kun bo'yi xonangdan chiqmay, biz ekkan gulga tikilib o'tiribsanmi?

– Ha, ustozimiz uyga vazifa bergan edi. Mashhur o'zbekistonliklar haqida ma'lumot topishim kerak. Men bir ajoyib biolog olim bilan gaplashdim. Bu olim kashf etgan foydali mikroblar o'simliklarning tez o'sishiga yordam berar ekan. Qoyilmisan, Madina?



– **Dilfuza opa, kashfiyotingiz qanchalik muhim? Aytib bering.**

– Men ekologik toza meva-sabzavotlar yetishtirish texnologiyasini ixtiro qildim. Ularning tarkibida zararli kimyoviy elementlar bo'lmaydi. Bunday meva-sabzavotlarni yegan bolalar sog'lom bo'ladi.

– Bunday olamshumul kashfiyot qilish uchun nimalarni bilish kerak?

– Hozirgi kunda ilm-fanga tegishli eng so'nggi ma'lumotlar Internetda ingliz tilida berib borilyapti. Shuning uchun har bir inson o'zining ona tilini mukammal bilib olgach, chet tillarni, ayniqsa, ingliz tilini yaxshilab o'rganishi kerak. Ingliz tilini yaxshi bilganim uchun kimyo sohasidagi eng yangi ma'lumotlarni o'rganib, shular yordamida ushbu texnologiyani kashf qildim.

– Olima bo'lish uchun necha yil o'qigansiz?

– Inson olim bo'lish uchun o'qimaydi. Avvalo, ilm olish farz bo'lgani uchun o'qish kerak. Keyin esa o'sha ilmlarni insonlarning foydasiga sarflash zarur. Har bir insonda ilmning qaysidir sohasiga qobiliyat bor. O'sha iste'dodni topib, uni ro'yobga chiqarish kerak.

– Yirik ilmiy kashfiyotlar qanday qilinadi?

– Inson bu dunyoni, borliqni o'rganishga qiziqsa, "Nima uchun?" degan savolga javob izlasa, ajoyib yangiliklarga duch keladi. Ilmda har bir ishga ijodiy yondashish kerak, shunda qandaydir kashfiyotlar, ixtirolar qilinadi.

– Inson hayot yo'lini qanday tanlashi kerak?

– Inson hayotda eng ko'p qaysi sohaga qiziqsa, ana shu soha uning bir umrlik ishi va kasbiga aylanishi kerak. Chunki hayotimizning asosiy qismi ishxonada o'tadi. Inson o'z kasbini sevsa, hayoti mazmunli bo'ladi, oldiga qo'ygan maqsadlarga, orzulariga erishadi.

– Nima uchun ilm-fanni tanlash kerak?

– Bugun insoniyat global muammolarga duch keldi: pandemiya, iqtisodiy inqiroz, qashshoqlik, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik va hokazo. Bu muammolarni hal qilishning yagona yo'li – bu ilm-fan. Sayyoramizni asrab, unda farovon hayot kechirish, insoniyatni toza havo, toza suv, toza yegulik bilan ta'minlash uchun ilm-fan bilan shug'ullanish kerak. Buning uchun esa bolalikdan ilm olishga qattiq harakat qilish kerak.



Egamberdiyeva Dilfuza Rustamovna,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor,
Butunjahon fanlar akademiyasi a'zosi.



1. Nega Akmal biologiya faniga qiziqib qoldi?
2. Suhbatda sizga eng yoqqan savol qaysi?
3. Dunyoga mashhur olim bo'lish uchun nima qilish kerak?



Ma'lumotlarni o'qib, guruhlarga bo'lingan holda muhokama qiling. Ular bo'yicha bir nechta savol tuzib, sinfdoshlaringizdan intervyu oling.

2021-yil 1-iyunda o'zbekistonlik Sergey Denisenko sayyoramizning eng baland nuqtasiga – 8849 metrlik Everest cho'qqisiga O'zbekiston bayrog'ini o'rnatdi. Qor-yomg'irli ob-havoda, qahraton sovuqda, nihoyatda qiyin sharoitlarda kechgan ekspeditsiya salkam ikki oy davom etdi.

Sergey Denisenkoga "O'zbekiston iftixori" unvoni berildi.



1

Sergey Denisenko



MUNDARIJA

I bo'lim. Men va atrofimdagi olam

1-dars.	VATANIM HAQIDA NIMALARNI BILAMAN?	4
2-dars.	O'zbekiston xalqi – Vatanimiz faxri	8
3-dars.	Men yashayotgan olam	12
4-6-daralar.	Sayyoramizga nimalar xavf solmoqda?	16
7-dars.	Biz qanday dunyoda yashashni istaymiz?	24

II bo'lim. Insonlar orasida

8-9-daralar.	Tenglik nima?	26
10-11-daralar.	Kamsitish nima?	30
12-13-daralar.	Sinfdagi muhit	34
14-dars.	Volontyorlik	40

III bo'lim. Men o'zimni boshqaraman!

15-dars.	Men hayotni sevaman!	44
16-18-daralar.	His-tuyg'ularimiz	47
19-dars.	Mening odatlarim	52
20-dars.	Mening sog'lig'im	56
21-22-daralar.	O'zimni boshqaraman	60

IV bo'lim. An'analar va madaniyat

23-24-daralar.	An'analar – xalq xotirasidir	64
25-26-daralar.	O'zbekiston xalqlari madaniyati	74
27-dars.	O'zbekiston shaharlari	82
28-29-daralar.	Muzeylar – moziy ko'zgusi	86
30-dars.	O'zbekiston bo'ylab sayohat	92

Darslik holati haqida ma'lumot

N ^o	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

**Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi
jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq
to'ldiriladi**

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga

murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

3-sinf tarbiya kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT qilib beriladi.**

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT

QILMANG.